



# Xalq so'zi

O'zbekiston —  
kelajagi  
buyuk  
davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2024 yil 17-dekabr, № 261 (8884)

Chorshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



## AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISHDA BANKLARNING ISHTIROKI KENGAYTIRILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 16-dekabr kuni banklar ishtirokida mahallalarda aholi bandligini ta'minlash va daromadli qilishga qaratilgan ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.

So'nggi yillarda banklar faoliyati mahallagacha tushirilgan o'z natijasini beryapti. Xususan, Namangan viloyatining Uychi tumanida banklar 3 ming 200 ta faol mijoz bilan ishlab, ularga yordam bergani uchun 9 ming odam doimiy ishli bo'ldi. Kambag'allar soni 6 mingga kamaydi.

Sirdaryo viloyatining Sayxunobod tumanidagi 3 ming 200 ta xonadonda loyihalar ishga tushirildi, 12 ming odam o'z tomorqasida daromad topishni o'rgandi.

Jizzax viloyatining Zarbdor tumanida 13 ming 500, Buxoro viloyatining G'ijduvon tumanida 28 ming ish o'rni yaratildi. Bularning hisobiga qo'shimcha 10 mingdan ziyod aholi kambag'allikdan chiqarildi.

Umuman, mazkur 4 ta tuman — Uychi, Sayxunobod, Zarbdor va G'ijduvon tajribalari doirasida yil boshidan buyon 3 million 300 ming aholi doimiy daromadga ega bo'lgan. Jami rasman band bo'lganlar ilk bor 10 million 500 ming nafarga yetgan.

Bundan tashqari, Xo'jayli, Asaka, Vobkent, Bulung'ur, Yangiyer, Qo'shtepa, Shovot kabi 57 ta tumanida ishsizlik 5 foizdan pasaygan.

Markaziy bank va joylardagi banklar bu ijobiy tajribalarni kengaytirib, xalqqa madad bo'lishi zarurligi ta'kidlandi.

— 2025-yil bandlekni ta'minlash va kambag'allikni kamaytirishda ega muhim va hal qiluvchi yil bo'ldi, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Yig'ilishda shu boradagi yangi imkoniyatlar va rejalar ko'rib chiqildi.

Oxirgi 6 yilda oilaviy tadbirkorlik dasturi doirasida 750 ming aholi kreditini vaqtida qaytarib, daromadli biznesga ega bo'lgan. Ulardan 58 mingi yangi korxonaga ham o'chgan.

Endi banklar mana shunday sinovdan o'tgan mijozlarini qo'llab-quvvatlab, kichik va o'rta biznes darajasiga olib chiqishi zarur.

Shu bois ularga "Kichik biznesni qo'llab-quvvatlash" dasturi doirasida shartsiz 300 million so'm kredit beriladi. Bu orqali kelgusi yillarda 1,5 million aholi ishli bo'ladi.

Ilgari banklar oilaviy tadbirkorlik dasturlariga mablag'ni faqat davlatdan olgan. Xalq banki tashabbus ko'rsatib, Osiyo taraqqiyot banki bilan "Moliyaviy ommaboplik" dasturi doirasida 50 million so'mgacha ortiqcha hujjat va garovsiz kredit beryapti. Ushbu namuna asosida kelgusi yil 9 ta davlat banki 1 milliard dollar kredit berib, 250 ming aholini daromadli qilishi mumkinligi aytiladi.

Faol tadbirkorlar ishtirokida 27 ta tumanda ochilgan kooperatsiyalar yaxshi samara beryapti. Kelasi yil 30 ta tumanda baliqchilik, quyonchilik, chorvachilik va asalarichilik bo'yicha shunday kooperatsiyalar tashkil qilinadi. Bunga 500 milliard so'm yo'naltiriladi.

Ham investitsiya olib keladigan, ham ko'p ish o'rni yaratadigan startap loyihalar qo'llab-quvvatlanadi. Buning uchun davlat banklari venchur kompaniya tuzib, mahalla startaplari o'z mablag'idan jami 50 million dollar ajratadi. Har bir bank xususiy sherik topib, startaplarni biznesga aylantiradigan akseleratorlar o'chadi.

Yig'ilishda og'ir tumanlarda ishsizlikni kamaytirish masalasiga alohida yondashildi. Ularga boshqa hududlardan tajribali tadbirkorlar jalb qilinib, loyihalari uchun yengil kreditlar hamda infratuzilmasiga qo'shimcha mablag' ajratiladi. Bu 1 million 300 ming aholini daromadli qilish imkonini beradi.

Davlat infratuzilma qilib bersa, tadbirkorlar qo'shimcha 31 trillion so'mlik 3,5 mingta loyiha va 200 mingta yangi ish o'rni tashkil etish tashabbusini bildirgan. Kelgusi yilda ushbu loyihalar infratuzilmasiga 1 trillion so'm ajratilishi belgilandi.

Yana bir tahlil: 85 ming gektar yerda kam daromadli ekin ekilgani sababli samaradorlik pastligicha qolmoqda. Shu bois bunday yerlar yirik konturga birlashtirilib, yetakchi tadbirkorlarga ikkilamchi jaraga beriladi. Yer egasiga ijara haqi va mahsulotni sotishdan ulush to'lanadi. Ekin ekmagan aholiga yerini boshqasiga ikkilamchi jaraga berish haqida majburiy talabnoma kiritiladi. Kelasi yil taqsimlanadigan 100 ming gektar yer ham shu tartibda ajratiladi.

60 ta ilg'or shahar-tuman ishsizlik va kambag'allikdan xoli bo'lish imkoniyatiga ega. Buning uchun kelgusi yilda ulardagi 2 million aholini band qilib, 417 mingta oilani kambag'allikdan olib chiqish zarurligi qayd etildi.

Bu maqsadlarga erishish uchun banklar moliyaviy mustahkam bo'lishi kerak. Shu bois faqat davlat beradigan pulga bog'lanib qolmasdan, tashqi manbalardan 6 milliard dollar jalb qilish muhimligi ta'kidlandi. Shuningdek, kelasi yili aholi omonatlarini 11 milliard dollarga yetkazish vazifasi qo'yildi.

Huquqiy asos yaratilgani bois bu yil 5,5 trillion so'mlik mikromoliya va faktoring xizmatlari ko'rsatildi. Bu asosdan foydalanib, endi davlat banklari ham o'zining mikromoliya va faktoring kompaniyasini o'chishi, unga xorijiy investorlarni jalb qilishi mumkin.

Yig'ilishda banklar oldidagi muammolar ham tahlil qilinib, hal qilish choralari ko'ridi.

Masalan, banklar balansida 3 mingta harakatsiz mulk bor. Ular sotilsa, qo'shimcha resurs va 150 mingta ish o'rni uchun zaxira paydo bo'ladi. Shu bois banklarga harakatsiz mulklarni bozor qiymatida to'g'ridan-to'g'ri sotishga ruxsat berilishi belgilandi.

Kredit qarzi hisobidan garovni sud orqali undirishga ham ko'p vaqt sarflanmoqda. Shuning uchun bu boradagi qonunchilikni o'zgartirish, unda garovga nisbatan bank huquqlari ustuvorligini hamda undiruvga qaratilgan mulklar tezroq sotilishini nazarda tutish zarurligi aytiladi.

Hokimliklar bilan banklarning mahallalarda muvofiq ishlash tizimi ko'rsatib o'tildi. Bunda tuman hokimlari loyihani joy va infratuzilma bilan ta'minlash majburiyatini oladi, banklar esa tadbirkorlar loyihalari uchun qo'llab-quvvatlash, muammosi bo'lsa, hal etadi, ishsizlarni biznesga jalb qiladi.

Shu maqsadda mahalla banklari faoliyatini yo'lga qo'yish taklifi bildirildi. Ular mahallaning biznes imkoniyatlarini o'rganadi, odamlarning g'oyalari va qobiliyatini loyihalarga aylantiradi. Aholiga moliyaviy tartiblarni, mahsulot va xizmatlarini sotishni o'rgatadi, loyihalarga hamrohlik qiladi.

Umuman, jahon iqtisodiyotidagi bugungi murakkab sharoitda moliya-bank tizimining barcha darajasida moliyaviy intizom va shaxsiy mas'uliyatni kuchaytirish muhimligi ta'kidlandi.

Yig'ilishda hokimlar va bank rahbarlari 2025-yilda 5 milliarddan ziyod aholini daromadli qilish, 1,5 million aholini kambag'allikdan chiqarish bo'yicha hisob-kitoblarini taqdim etdi. Muloqotda hududlardagi ijobiy tajribalar, mutasaddilarning axborotlari eshitildi.

## SAYYOHLAR UCHUN ZAMONAVIY MARKAZ BARPO ETILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanida qurilishi mo'ljallangan xalqaro turizm markazi taqdimoti bilan tanishdi.

Dunyo bilan aloqalar kengayib, infratuzilma rivojlangani sari mamlakatimizning turizm salohiyati ham oshmoqda. Shunday jozibador maskanlardan biri, shubhasiz, Bo'stonliq tumani. Chorvoq suv ombori va daryolari, qorli tog'lari, xushmanzara daraxtzorlari bois bu yerda yilning barcha faslida maroqli horidq chiqarish mumkin.

Davlatimiz e'tibori bilan so'nggi yillarda Bo'stonliqda ko'plab yangi majmualar barpo etildi, "Amirsoy", "Beldirsoy — Chimyon — Nanay" kurorti kabi loyihalar amalga oshirildi. Xususan, so'nggi besh yilda 2 trillion so'mdan ziyod investitsiya kiritilib, 13 mingdan ziyod o'rinlarga ega 59 ta yangi turizm inshooti ishga tushirildi.

Bunday natijalar chet elik investorlarni o'ziga tortmoqda, yanada katta miqyosdagi loyihalarga yo'l ochmoqda. Jumladan, ozarbayjonlik ishbiaron Emin Agalarov bir qator yirik xorijiy kompaniyalar bilan sheriklikda Chorvoq suv ombori bo'yida "Sea Breeze Uzbekistan" xalqaro turizm markazi barpo etish istagini bildirmoqda.

Loyihaga ko'ra markazda dam olish, cho'milish va sport maskanlari, mehmonxonalar, kottejlar, turarjoylar bo'ladi. Xalqaro brendlarning do'konlari, restoran va xizmat shoxobchalari ochiladi. Turli festivalllar, konsertlar va boshqa madaniy tadbirlar o'tkaziladi. Ikki qirg'oq o'rtasida ko'priq qurilib, keluvchilarga qulaylik oshiriladi. Kelajakda mazkur markaz o'ziga xos turizm xabiga aylanib, unda yil davomida dam olish va yashash mumkin bo'ladi.

Davlatimiz rahbari bu taklifni ma'qullab, uni xalqaro tajriba asosida loyihalashtirish va bosqichma-bosqich qurish zarurligini ta'kidladi. Bosh vazir boshchiligidagi komissiya tuzib, loyihaning huquqiy asosini yaratish, infratuzilma masalalarini hal etish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

O'ZA.

## BARQAROR RIVOJLANISHDA PARLAMENTLARNING ROLI

Oliy Majlis Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi raisi Qutbiddin Burhonov boshchiligidagi delegatsiya Ostona shahrida Qozog'iston Respublikasini barqaror rivojlantirish sohasidagi milliy maqsad va vazifalar ijrosini monitoring qilish bo'yicha parlament komissiyasining "Markaziy Osiyoni barqaror rivojlantirish: parlamentlar va mahalliy vakillik organlarining roli" mavzuidagi kengaytirilgan majlisida ishtirok etdi.

### Hamkorlik

Markaziy Osiyo mamlakatlari parlamentlari a'zolari, xalqaro tashkilotlar vakillari, shuningdek, ekspert va mutaxassislar qatnashgan tadbir mintaq mamlakatlarining barqaror rivojlanishini ta'minlashda parlamentlar va mahalliy vakillik organlarining o'rni muhokama qilindi.

Tadbirida O'zbekistonda

Milliy barqaror rivojlanish maqsadlari ijrosi, barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash va aholi turmush sifatini yaxshilashga qaratilgan keng ko'lami islohotlar amalga oshirilishini nazorat qilish bo'yicha parlament komissiyasining faollik ko'rsatayotganiga urg'u berildi.



### Siyosiy partiyalar fraksiyalarida

## FUQAROLAR HUQUQ VA MANFAATLARINI TA'MINLASHGA YANGICHA YONDASHUV

Kecha siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyalarining yig'ilishlari bo'lib o'tdi. Ularda dastlab Prezidentimiz raisligida 13-dekabr kuni ijtimoiy himoya sohasidagi ishlar natijadorligi va 2025-yil uchun ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida qayd etilgan chora-tadbirlarning ahamiyati haqida to'xtalib o'tildi.

Shuningdek, davlatimiz rahbari raisligida shu kuni yangi energetika quvvatlarini ishga tushirish hamda navbatdagi qurilishga bag'ishlab o'tkazilgan tantanali marosimda belgilab berilgan ustuvor vazifalar haqida ham so'z bordi. Ilgari surilgan tashabbuslarni amalga oshirishda fraksiyalar a'zolari barcha yo'nalishda yanada faollik ko'rsatish, aholi bilan muntazam ishlash, sohaga doir qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha aniq vazifalarni belgilab olishdi.

Shundan so'ng yig'ilishlarda quyidagi palataning navbatdagi majlisi kun tartibiga kiritilishi rejalashtirilayotgan bir qator qonun loyihalari ko'rib chiqildi.

**Masofali video-uchrashuvlar o'tkazish yo'lga qo'yiladi**

Tadbirkorlar va ishbiaronlar harakati — O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida jazoni ijro etish muassasalarida jazo muddatini o'tayotgan mahkumlar



## ODAMLAR QALBIGA QUVONCH ULASHISH ULKAN SAVOB

Islom dinida muhtojlarga yordam berish, nogironligi bor insonlarga mehr-muruvvat ko'rsatish, miskin va bechoralar holidan xabar olish xayri amallardan hisoblanadi. Bunday ezgu ishlar jamiyat va mutasaddilarning asosiy vazifasi, desak, mublag'a emas.

### Munosabat

Alloh taolaga behisob shukrki, yurtimiz taraqqiyotining yangi davridagi o'zgarishlar nafari har bir shahar qishloq, mahallayu guzar, xonadonlarga kirib bordi. Islohotlarning barchasi xalqimiz qadr-qimmatini yuksaltirish, odamlarni rozi qilish, vatandoshlarimizning to'kin hayot kechirishini ta'minlashga qaratilgan quvonarli, albatta.

Prezidentimiz tashabbusi bilan ijtimoiy himoyaga muhtojlar, nogironligi bo'lganlar, shuningdek, kambag'al oilalarga doimiy g'amxo'rlik ko'rsatib kelinayotir.

Buning natijasi o'laroq ular o'zlarini shu jamiyatning to'laqonli, e'tibordagi a'zosi, deya his qilish yashamoqda.

Joriy yilning 13-dekabr kuni ana shunday savobli ishlarni yanada takomillashtirish yo'lida davlatimiz rahbari raisligida ijtimoiy himoya sohasida amalga oshirilgan faoliyat hamda 2025-yildagi ustuvor vazifalar yuzasidan videoselektor bo'lib o'tdi. Ushbu yig'ilishda Andijon viloyati faollari bilan birgalikda kamina ham ishtirok etdi.



## AVIATSIYA SOHASIDAGI O'ZGARISHLAR KO'RSATKICHLARI

Mamlakatimiz aviatsiya sohasidagi kompaniyalarda yildan-yilga o'sish kuzatilmoqda. Xususan:

- "Uzbekistan Airways" AJ tizimida aviaqatnovlar 25 foiz ko'paydi;
- mahalliy yo'nalishlarda samolyotlar soni ortib, ichki qatnovlar 2,5 barobar oshdi.
- Markaziy Osiyodagi xalqaro tashuvlarda milliy aviatsiya tarmog'i ulushi 20 foizga yetdi. Yillik yo'lovchi tashish ko'rsatkichi 6 million nafardan oshishi kutilmoqda.

Shuningdek, "Uzbekistan Airports" AJ samolyotlarga, yuk tashish bo'yicha va yo'lovchilarga xizmat ko'rsatmoqda. Dunyo mamlakatlarining 44 ta aviakompaniyasi yurtimizga parvozni amalga oshirmoqda.



Fakt va raqamlar



## O'ZBEKISTON CHARM SANOATINING EKOLOGIK INNOVATSIYALARI:

## TARAQQIYOTNING MUHIM BOSQICHI

Yurtimizda 2025-yil "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yili" deb e'lon qilindi. Bu qaror mamlakatning ekologik strategiyasini yangi bosqichga ko'tarish, iqtisodiyotning barqaror va ijobiy rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan muhim qadam bo'ladi.

O'zbekistonning ekologik holati va tabiatni muhofaza qilish masalalariga e'tiborning kuchaygani mamlakatda "yashil" iqtisodiyotga bo'lgan ehtiyojning yanada oshganini ko'rsatadi. 2025-yilda mazkur mavzularga katta

e'tibor qaratiladi va bu atrof-muhitga e'tiborni kuchaytirish, resurslarni tejash va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini kengaytirishga qaratilgan tadbirlarni nazarda tutadi.



## BARQAROR RIVOJLANISHDA PARLAMENTLARNING ROLI

Ishtirokchilar O'zbekiston BRMga erishish yo'lida katta yutuqlarga erishayotganini e'tirof etib, mintaqaviy hamda xalqaro darajada hamkorlikni yanada rivojlantirishda, global ustuvorliklarni milliy kun tartibiga integratsiyalashtirishda namuna bo'layotganini ta'kidledi.

Majlis doirasida iqlim o'zgarishi, suv resurslari tanqisligi, cho'llanish kabi ekologik tahdidlarga, shuningdek, suv va energetika xavfsizligi masalalariga ham to'xtalib o'tildi.

Ishtirokchilar ularni hal etishda parlamentlararo aloqalarni mustahkamlash, tajriba almashish va mahalliy hokimiyat vakillik organlari bilan hamkorlik qilish muhimligini ta'kidledi.

Majlis yakunida mintaqa mamlakatlarining hamjihatlikda, keng qamrovli va muvozanatli rivojlanishiga erishish uchun parlamentlararo hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha kelishuvga erishildi.

"Xalq so'zi".

## Jarayon

### SENATORLAR VA YOSHLAR UCHRASHUVI

Oliy Majlis Senati a'zolari Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining professor-o'qituvchilari hamda bir guruh talabalari bilan uchrashuv o'tkazdi.

Ishtirokchilarga yurtimizda yoshlarga berilayotgan e'tibor, yaratilayotgan shart-sharoitlar va ularning samaralari, Senat faoliyatidagi yangiliklar va Yoshlar parlamenti haqida batafsil ma'lumot berildi.

Xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularga berilayotgan keng imkoniyatlardan unumli foydalanish, ayollar huquqlarini ta'minlashda davlat organlari va tashkilotlarining sa'y-harakatlari yuzasidan fikr almashildi. O'z navbatida, talabalar tomonidan ham qator muhim tashabbus va takliflar ilgari surildi.

Uchrashuvdan so'ng yoshlar Senat binosi va faoliyati bilan tanishdi.

"Xalq so'zi".

# FUQAROLAR HUQUQ VA MANFAATLARINI TA'MINLASHGA YANGIHA YONDASHUV



Fraksiya a'zolari qonun loyihasining ahamiyati va zaruratiga alohida to'xtalib o'tdi. Xususan, deputat Diyor Husanovning ta'kidlashicha, loyiha mahkumlarga telefon orqali so'zlashish bilan birga, tegishli jazoni ijro etish muassasalarining turiga binoan jinoyat-jiroiqa qonunchiligida belgilangan miqdordan oshmagan holda ularning xohishi asosida masofali videouchrashuv xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini ham yaratadi. Shu bilan birga, jazo muddatini o'tayotgan mahkumlarining masofali videouchrashuv yo'li orqali ularning oila a'zolari va yaqinlari bilan doimiy aloqalarini ta'minlash o'zaro munosabatlari saqlab qolish, shuningdek, tuzalish yo'lga o'tishiga ko'maklashishga xizmat qiladi.

Muhokama qilingan navbatdagi hujjat — "O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi bo'ldi.

Ushbu qonun loyihasi bilan Mehnat kodeksiga ish jarayonlarida tazyiq va zo'rovonliklarni taqiqlash hamda ularning oldini olish, tazyiq va zo'rovonlikdan jabrlanganlarga va farzandi tug'ilishi munosabati bilan erkaklarga o'rtacha ish haqi saqlangan holda qo'shimcha ta'til berishni nazarda tutuvchi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda.

Munozaralar davomida fraksiya a'zosi Madina Baratova qonun loyihasi yuzasidan fikrlarini bildirib, unda nazarda tutilayotgan normalar bo'yicha taklif va tavsiyalarini berdi. Deputat ushbu qonun loyihasi tazyiq va zo'rovonliklarning oldini olish hamda erkaklar o'z kasbiy va oilaviy majburiyatlarini uyg'un tarzda amalga oshirishi uchun sharoit yaratishga xizmat qilishini ta'kidledi.

Ko'rib chiqilgan barcha qonun loyihalari fraksiya a'zolari tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

Ishni sudga qadar yuritishda taraflar tengligi kafolatlanadi

O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida deputatlar kun tartibiga kiritilgan qator qonun loyihalarini ko'rib chiqdi. Jumladan, tezkor-qidiruv hamda tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirishga qaratilgan qonun loyihasi ko'rib chiqildi.

Ushbu qonun loyihasi bilan jinoyat ishlari bo'yicha sudga qadar ish yurituv davrida protsessual qarorlarga sanksiya berish masalasi jinoyat ishlari bo'yicha tuman, shahar sudlarida alohida sudyalari — tergov sudyalari tomonidan ko'rib chiqilishi tartibini joriy etish nazarda tutilmoqda.

Qonun loyihasi ishni sudga qadar yuritishda taraflar tengligi va tortishuv prinsiplarini ta'minlashga, himoyachi huquqlarining kengayishiga hamda ayblov va himoya tarafi faoliyati ustidan xolis sud nazoratining amalga oshirilishiga yanada qulay sharoit yaratadi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga muvofiq prokuratura organlarining ayrim vakolatlarini sudlarga o'tkazilishi odil sudlovni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etishi barobarida shaxs daxlsizligi va konstitutsiyaviy huquqlarni ta'minlashda tub burilish bo'ladi.

Muhokamalar davomida fraksiya a'zolari qonun loyihasining mazmun-mohiyati va ahamiyatiga alohida to'xtalib, uni yanada takomillashtirish, pishiq-puxta holatga keltirish bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini, taklif va tavsiyalarini bildirdi. Loyihadagi ayrim normalar yuzasidan aniqlashtiruvchi savollar ko'tarildi.

Qonun tashabbuskorlari berilgan barcha savollar yuzasidan batafsil tushuntirishlar berib, bildirilgan asosli takliflar loyihani takomillatga yetkazish jarayonida e'tiborga olinishini ma'lum qildi. Qonun loyihasi deputatlar tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

Ayrim normalar yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizga muvofiqlashtirilmoqda

O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida "Sudlarning faoliyatiga oid konstitutsiyaviy kafolatlar kuchaytirilganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi ko'rib chiqildi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda sud-huquq sohasini isloh qilish, fuqarolarning odil sudlovga ishonchini mustahkamlash borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, yangi tahrirdagi Konstitutsiya bilan sud organlarining faoliyatiga, shuningdek, shaxsning huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilishga qaratilgan qator kafolatlar belgilandi. Oliy sudga hamda uning vakolatlariga taalluqli yangi normalar nazarda tutildi. Bu esa Oliy sud faoliyatini yagona yondashuv asosida isloh qilish zaruratini talab etmoqda.



Ushbu qonun loyihasi bilan "Sudlar to'g'risida"gi va "O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashi to'g'risida"gi qonunlar normalari Bosh qomusimizga muvofiqlashtirildi.

Shuningdek, qonun loyihasi sudyani muayyan ishning muhokamasidan chetlashtirishga yoki uning vakolatlarini to'xtatib turishga, boshqa lavozimga o'tkazishga faqat qonunda belgilangan tartibda va asoslarga ko'ra yo'l qo'yilishiga doir normalar bilan to'ldirilmoqda.

Deputatlar qonun loyihasi yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini bildirdi. Qayd etilganidek, qonun loyihasining qabul qilinishi Asosiy Qonunimizning zo'rsiz va to'liq ijroga qaratilishini, odil sudlovni amalga oshirishda uning normalari to'g'ridan-to'g'ri qo'llanilishini hamda davlat organlari faoliyati yangicha konstitutsiyaviy-huquqiy sharoitlarda yo'lga qo'yilishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Yig'ilishda boshqa qonun loyihalari ham ko'rib chiqildi va qo'llab-quvvatlandi.

Mehnat kodeksiga o'zgartirishlar kiritildi

O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi a'zolari tomonidan Mehnat kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishni nazarda tutuvchi qonun loyihasi ko'rib chiqildi.

Mazkur qonun loyihasi bilan mehnat jarayonidagi tazyiq va zo'rovonlikni hamda ushbu holatlar yuzasidan ko'rilgan choralarini idoraviy o'dob-axloq komissiyasida yoki kasaba uyushmasi vakili ishtirokida muhokama etish ish beruvchining majburiyati sifatida belgilanmoqda.

Shuningdek, ishlayotgan erkaklar farzandli bo'lganda turmush o'rtog'iga yordam berish va boshqa farzandlariga qarab turishi uchun qisqa muddatli (5 kalendar kundan iborat) ta'tilga chiqishi bilan bog'liq me'yorlar taklif etilmoqda.

Deputatlar loyiha yuzasidan o'z savollari, fikr va takliflarini bildirdi. Xususan, fraksiya a'zosi Zulayho Akromova loyihadagi yangi farzand ko'rgan otalar uchun 5 kunlik ta'til muddati belgilanishi va xodimning o'rtacha ish haqi saqlanib qolishi nazarda tutilayotganini ta'kidlab, bu me'yorlar qaysi qonunchilikka asoslangani, ushbu amaliyot xususiy sektorda faoliyat olib boruvchilar uchun qay tartibda joriy etilishi yuzasidan mutasaddirlarga yuzlandi.

Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining boshqarma boshlig'i o'rinbosari Laziz Qarshiyev ushbu masala uzoq o'rganilgani va me'yorlar xalqaro tajribani inobatga olgan holda belgilanishini qayd etdi. Ya'ni mazkur amaliyot 90 ta davlatda joriy etilgan bo'lib, aksariyatida "otalik ta'tili" 5 kun etib belgilangan, ayrimlarda esa ish haqini to'lash tartibi mavjud emas. O'rtacha ish haqining saqlanib qolishi esa xodimning mehnatidan foydalanilmasligi, ammo unga pul berilishi bilan izohladi.

Mas'ullar tomonidan xususiy sektorda ushbu amaliyot tatbiq etilishi nazarda tutilmagani, biroq bu bo'yicha boshqa qonun loyihasi ishlab chiqilayotgani va unda xususiy sektorni qamrab olish masalasi ko'rilayotgani ta'kidlandi.

Fraksiya a'zolari oilaning ijtimoiy holati hamda ona va bolaning sog'lig'idan kelib chiqib o'zgartirish haqida o'ylab ko'rish

maqsadga muvofiq ekanini bildirdi. Shu ma'noda, otaning arizasi va ehtiyojidan kelib chiqib, 5 kun degan qat'iy me'yor o'rniga 5 kundan kam bo'lmagan ta'til belgilash taklifi berildi.

Muhokamalardan so'ng, loyiha fraksiya a'zolari tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

Tazyiq va zo'rovonliklarning oldi olinadi

O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida deputatlar tomonidan "O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi ko'rib chiqildi.

Aytilganidek, qonunchilikda mehnat jarayonida boshqa xodimga nisbatan jirmoniy, ruhiy, iqtisodiy ta'sir o'tkazib tazyiq va zo'rovonlik sodir etish yoki bunday ta'sir o'tkazish choralarini qo'llash bilan tahdid qilish orqali uning hayoti, sog'lig'i, sha'ni, qadr-qimmatini va qonun bilan himoyalanganidagi boshqa huquqlari hamda erkinliklari tajovuz o'laroq baholalanadigan g'ayrihuquqiy harakat (harakatsizlik) taqiqlanishi aniq belgilanmagan.

Ish joylarida tazyiq va zo'rovonliklarni aniqlash, uni sodir etgan shaxslarga tegishli choralar qo'llash, jabrlangan shaxslarni ijtimoiy va huquqiy himoya qilish bo'yicha qonuniy asos mavjud emasligi bois salbiy holatlar uchrab turadi. Shundan kelib chiqib, mazkur qonun loyihasi bilan mehnat jarayonlarida tazyiq va zo'rovonlikning oldini olish, bundan jabrlangan shaxslarni ijtimoiy va huquqiy himoya qilish, mehnat munosabatlarda xalqaro standartlarni joriy etish nazarda tutilmoqda.

Bundan tashqari, oilaviy (maishiy) zo'rovonlikdan jabrlangan shaxslar aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari ro'yxatiga kiritilib, davlat tomonidan ularni ishga joylashtirish bo'yicha qo'shimcha kafolatlar ta'minlanishi belgilanmoqda.

Shuningdek, qonun loyihasida ijtimoiy ta'tillar bilan bog'liq, ya'ni tazyiq va zo'rovonlikdan jabrlanib, himoya ordenidan foydalanigan xodimga asosiy mehnat ta'tili bilan birgalikda o'rtacha ish haqi saqlangan holda ta'til berilishiga oid normalar kiritilayпти.

Muhokamalar jarayonida deputatlar tomonidan qonun loyihasini takomillatga yetkazish bo'yicha taklif va tavsiyalar berilib, u konseptual jihatdan qo'llab-quvvatlandi.

Kun tartibidagi barcha masala atroficha ko'rib chiqilib, tegishli qaror qabul qilindi.

"Xalq so'zi".

# GO'ZALLIK YARATISH VA KELGUSI AVLODGA G'AMXO'RLIK

tabiatga oqilona munosabatlardan boshlanadi

Ma'lumki, shaharlar, qishloqlar va sanoat markazlari havosining sanitariya-gigiyenik xususiyatlarini yashil maydonlar orqali yaxshilash masalalari Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti va UNESCOning xalqaro uzoq muddatli "Inson va biosfera" dasturi nazorat ostida.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlari uchun ekologik vaziyat, ayniqsa, yirik shaharlarda alohida mavzu bo'lib, barcha darajadagi rasmiy organlar, siyosiy partiyalar va ijtimoiy harakatlar, ommaviy axborot vositalari va boshqa aholi qatlamlarining e'tiborini tortmoqda.

## Nuqtai nazar



Ekologik holatni yaxshilashda shaharlar me'moriy qiyofasi va piyodalar uchun yozda kerakli soyani ta'minlash rejimiga faol ta'sir ko'rsatadigan ko'chalarni ko'kalamzorlashtirish alohida o'rinni tutadi. Shaharlar havosini tozalashda yashil maydonlarning o'rni katta. O'rta kattalikdagi daraxt 24 soat ichida uch kishi nafas olishi uchun yetarli bo'lgan kislorodni tiklaydi. Avtomobil chiqindi gazlari ham atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ba'zi hisob-kitoblarga ko'ra avtomobil bir soat ichida bir kishi 38 kun davomida nafas oladigan kislorodni iste'mol qiladi.

Atmosfera havosining gaz tarkibini shakllantirish o'simlik dunyosiga bevosita bog'liq: o'simliklar havoni inson salomatligi uchun foydali bo'lgan kislorod bilan boyitadi, karbonat angidridni yutadi. Yashil o'simliklar iqlimni yumshatadi. Yashil maydonlar chang va zaharli moddalarni o'zlashtirish bilan birga tuproqda chirindi hosil bo'lishida ishtirok etadi, bu esa uning unumdorligini ta'minlaydi.

Sanoat va transportning yirik aholi punktlarida to'planishi shahar atrof-muhitining ekologik holati va fuqarolarning hayot sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Mavjud vaziyatni to'g'rilashda yashil maydonlarning ahamiyati katta. Dam olish va dekorativ-badiiy funksiyalari inson asab tizimiga yukni kamaytirishga yordam beradi, aholi punktlarining estetik ko'rsatkichlarini oshiradi va insonlarni

dam olish joylari bilan ta'minlaydi. Shuning uchun ham dunyoning ko'plab yirik shaharlarida ko'kalamzorlashtirishga katta urg'u berilmoqda.

Hududlarni ko'kalamzorlashtirishning sifati, birinchi navbatda, o'simliklarni to'g'ri tanlashga bog'liq. Ular ekiladigan hududning yashash muhitiga biologik va ekologik xususiyatlarini jihatidan mos kelishi kerak. Shuningdek, daraxtning o'sish tezligi, uzoq umr ko'rishi hamda shamol, gaz va shovqindan himoya qilish xususiyatlarini ham hisobga olish zarur. Eng maqbuli, bu mahalliy sharoitlarda yetishtirilgan daraxt ko'chatlarini ekishdir, chunki ular o'zlarini o'zlarini odatiy bo'lgan sharoitda yaxshi tutib ketadi. Ayni chog'da mahalliy sharoitga moslashib keta oladigan boshqa geografik hududlarda yetishtirilgan daraxtlarni ham ekish mumkin.

Mamlakatimiz uchun obodonlashtirish masalasi har qachongidan muhimroq va dolzarb, chunki sanoatning o'sishi qator ekologik muammolarning paydo bo'lishiga, shahar atrof-muhitining sifat xususiyatlarini yomonlashishiga olib keldi. Shu munosabat bilan Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 21-oktabr kuni "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasidagi ishlar natijadorligi va kelgusidagi ustuvor

vazifalar muhokamasi yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi. Unda ta'kidlanganidek, mamlakatimizda har yili 200 mln. tup daraxt va buta ekib, yashil miqyosini 2030-yilgacha 30 foizga yetkazish maqsadi belgilangan. Keyingi yillarda bu ko'rsatkich 12 foizga yetdi. Bu yil bahorda 138 mln. tup ko'chat ekildi. Yil boshidan buyon 10 ming gektardan ziyod "yashil belbog", vazirlik va hokimliklar tomonidan 257 ta bog' barpo qilindi. Oro'lbo'yida yashil qoplamaga 2 mln. gektardan oshdi.

Videoselektor yig'ilishida muhokama qilingan muhim masalalar qatorida "Yashil makon" umummilliy loyihasini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ekilgan ko'chatlarning ko'karuvchanligini ta'minlash, buning uchun daraxtlarni tomchilatib sug'orish tizimini takomillashtirish va ushbu yo'nalishdagi ilg'or texnologiyalarni joriy etish vazifalari belgilandi.

Haqiqatan ham, ekilgan ko'chatlarning yashovchanligini oshirishda boshqa ko'plab omillar qatori ularni suv bilan ta'minlash muhim. Lekin mamlakatimizda suv resurslarining cheklangani va tanqisligini nazarda tutgan holda aytish mumkin, ekilgan ko'chatlarni suv sug'orishning tejankor texnologiyalarini,



jumladan, tomchilatib sug'orish texnologiyasini qo'llash. Tomchilatib sug'orish qishloq xo'jaligi amaliyotida qo'llanilayotgan nisbatan yangi sug'orish usuli bo'lib, bunda maxsus filtrlar yordamida tozalangan suv tomchilatkichlar orqali tomchi shaklida tuproqqa berilib, o'simlikning ildiz tizimi eng ko'p tarqalgan tuproq qatlamini lokal namitirishga erishiladi. Shuningdek, tomchilatib sug'orish tizimi konstruksiyasini hudud iqlimi, relyefi, tuproq, gidrogeologik, geologik va xo'jalik sharoitlari hamda sug'orish suvining sifatini e'tiborga olgan holda tanlash zarur.

Tomchilatib sug'orish ko'p yillik o'simliklarning ildiz zonasini aniq suv bilan ta'minlashga yordam beradi. Buning yordamida namlikning haddan tashqari bug'lanishi sodir bo'lmaydi, bu esa sug'orish orasidagi davrlarda ildiz tizimining qurib qotishiga yo'l qo'ymaydi.

Ushbu usul bilan sug'organda qatqaloq paydo bo'lmaydi va tuproq yumshoqligicha qoladi, bu kislorodning tuproqqa va ildizlarga kirib borishini osonlashtiradi. Tomchilatib sug'orish o'simliklarning ildiz tizimiga to'g'ridan-to'g'ri cheklangan miqdordagi suvni bir xilda yetkazib berishga asoslangan sug'orish usullaridan biridir. Ushbu usuldan foydalanish bizga kerakli haroratda va kerakli o'lchamdagi suvni yetkazib berish imkonini beradi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 7-noyabr kuni qishloq xo'jaligida suv va energiya manbalaridan oqilona foydalanish hamda yo'qotishlarni kamaytirish chora-tadbirlari yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida ham bugungi dunyoda ekologik muammolar, tabiiy ofatlar ko'payib borayotgani aytilib, mintaqamizga suv tanqisligi xavf solayotgani ta'kidlandi. Shu bois yurtimizda suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish, bu me'natni asrash bo'yicha ko'p ishlar qilinmoqda.

Ta'kidlanganidek, kelgusi yilda yana 500 ming gektarda suv tejovchi texnologiyalar o'rnatiladi. Qoraqalpog'istonda qo'llangan lazerli tekislangan yerning har gektariga 1 mln. so'mdan subsidiya berish tizimi endi Xorazmda ham bo'ladi. Boshqa hududlarda ham lazerli tekislash kengaytiriladi. Prezidentimiz suv xo'jaligi sohasida keskin o'zgarish qilishning birdan-bir yo'li raqamlashtirish ekanini urg'uladi. Nasos stansiyalariga onlayn nazorat va "aqlli" suv quurilmalari olib kelingan. Lekin ulardan olinadigan ma'lumotlarni jamlab, tahlil qiladigan axborot tizimi yo'q. Suv iste'moli va hisob-kitobi o'ta murakkab.

Shu bois vazirlik huzurida Suv xo'jaligini raqamlashtirish markazi tuzilishi belgilandi. Unda suv iste'moli va hisobini yuritishning yagona axborot tizimi ishga tushiriladi. Mutasaddirlarga suv xo'jaligida 2030-yilgacha bo'lgan

eng muhim loyihalar dasturini tayyorlash vazifasi qo'yildi.

Darhaqiqat, suv — bu hayot manbai va tirik mavjudotlar uchun eng zarur resurslardan biri. Biroq dunyo bo'ylab suv ta'minotiga nisbatan bosim ortib bormoqda, ko'plab hududlarda obiyot tanqisligi muammosi mavjud. Bebaho me'natni tejash nafaqat kelajak avlodlar uchun, balki hozirgi kunning ham dolzarb masalasi hisoblanadi.

Suv ta'minoti davlat iqtisodiyoti uchun muhim o'rinni tutadi, ayniqsa, qishloq xo'jaligi va sanoat tarmoqlarida. Suv tejash texnologiyalari va samarali sug'orish tizimlari orqali qishloq xo'jaligida ko'proq hosil olish mumkin, bu oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlaydi. Sanoat ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi va tabiiy resurslarga bosimni kamaytiradi.

Davlat darajasida suvni tejash, bu — strategik ahamiyatga ega masala bo'lib, u iqtisodiy barqarorlik, ijtimoiy farovonlik, milliy xavfsizlik va ekologik muvozanatni saqlashga xizmat qiladi. Suvni tejash siyosatini shakllantirish va uni izchil amalga oshirish davlat tomonidan qo'llaniladigan samarali chora-tadbirlarga bog'liq. Bu kelajakda suv resurslarini asosan va aholini barqaror ta'minlashga yordam beradi, shuningdek, davlatning milliy va xalqaro miqyosda muvaffaqiyatli rivojlanishida asqatadi.

Zero, suvni tejash har bir insonning mas'uliyati bo'lib, bu ekologik barqarorlik va iqtisodiy yuksalish uchun zarur. Suvni tejash orqali nafaqat tabiatni asraymiz, balki kelajak avlodlar uchun ham bu qimmatbaho manbani saqlab qolamiz. Har birimiz kundalik hayotimizda kichik qadamlar bilan bu jarayonga hissa qo'shishimiz mumkin.

Bahrom ABDULLAYEV,  
Oliy Majlis Senatining  
Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash  
masalalari qo'mitasi raisi.

Ijtimoiy himoya:

# INSON QADR-QIMMATI — ENG OLIY QADRIYAT

Keyingi yillarda ijtimoiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlar va yangiliklar mamlakatning barcha jabhasida, ayniqsa, ijtimoiy himoya tizimida sezilarli o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. Davlatimiz rahbarining hayotiy tashabbuslari va kuchli siyosiy irodasi bilan "Inson — jamiyat — davlat" mavoyli haqiqatga aylandi, tom ma'noda davlat organlari xalqqa xizmat qilishni boshladi. O'tgan haftada Prezidentimiz raisligida

ijtimoiy himoya sohasida amalga oshirilgan ishlar va 2025-yildagi ustuvor vazifalar yuzasidan o'tkazilgan videosektor yig'ilishida ham sohadagi dolzarb masalalar chuqur tahlil qilindi. Galdagi vazifalar belgilab berildi. Albatta, ularning ijrosi aholi ijtimoiy himoyasini yanada mustahkamlash barobarida, ko'plab oilalarni kambag'allikdan chiqarish, ehtiyojmand yoshlarni yanada qo'llab-quvvatlashga keng imkon yaratadi.

## Islohotlarning huquqiy asosi

Shu o'rinda mamlakatimizda davlatning fuqarolar oldidagi ijtimoiy majburiyatlarini huquqiy jihatdan mustahkamlashga qaratilgan qator hujjatlar qabul qilinganini qayd etish joiz.

Xususan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda eng asosiy burilish ijtimoiy sohada yuz berdi. Unga ko'ra, ijtimoiy majburiyatlarga doir normalar 3 barobar oshdi. Ayni shu maqsadda Asosiy Qonunimizda mehnatga layoqatsiz va yolg'iz keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar hamda aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand boshqa toifalarining huquqlari davlat himoyasida bo'lishining belgilangan mazkur sohani yagona yondashuv asosida isloh qilish zarurligini taqozo etdi.

Bu borada Prezidentimizning tegishli Farmoni bilan O'zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish strategiyasi qabul qilindi. Unda kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy yordam dasturi bilan qamrab olish darajasini 58,8 foizdan 98,1 foizga yetkazish, kambag'allik chegarasidan past darajada yashovchi aholini 17,0 foizdan 5,0 foizga qisqartirish, aholining mehnat bozorida ko'rsatiladigan xizmatlar bilan qamrab olinganligini 64,2 foizdan 70,0 foizga ko'tarish, ishsizlik nafaqasini oluvchilar ulushini 5,7 foizdan 7,0 foizga oshirish kabi ijtimoiy himoya sohasiga taalluqli 11 ta maqsadli ko'rsatkich belgilab berildi.

Ijtimoiy himoya yo'nalishida oxirgi ikki yilda 40 taga yaqin qonunchilik hujjatlari imzolanganining o'zi ham ushbu tizimga alohida e'tibor qaratilayotganidan dalolat beradi.

Joriy yil oktabr oyida qabul qilingan "Ijtimoiy xizmatlar va yordam ko'rsatish tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonun bilan aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash borasida qator yangiliklar yaratildi. Xususan, unda o'zgalarning parvarishiga muhtoj bo'lgan 80 yoshga to'lgan keksalarga qarab turilgan vaqt ish stajiga qo'shib hisoblanishi uchun davolash muassasasining xulosasi talab etilmasligi, shuningdek, o'zgalar parvarishiga muhtoj bo'lgan yolg'iz keksalarga, yolg'iz yashovchi keksalarga va nogironligi bo'lgan shaxslarga shahar yo'lovchi transportidan bepul foydalanish huquqi berildi.

Qonun bilan "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari tomonidan ijtimoiy himoyaga muhtoj ayrim toifadagi shaxslarni vaqtincha ro'yxatga olishda ham davlat boji undirilmasligi nazarda tutildi. Shu bilan birga, yetim bolalar va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning davlat tomonidan iklaklamlab bozordan olingan uy-joyning ularning nomiga rasmiylashtirish uchun notariyal harakatlarni amalga oshirishda davlat bojini to'lashdan ozod qilinishi belgilandi.

Mazkur yangiliklar o'zgalar parvarishiga muhtoj bo'lgan minglab yolg'iz keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar hamda yetim bolalarning xarajatlarini kamaytirib, ularning hayot darajasini yaxshilashga, ijtimoiy himoya tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

## Manzillilik va adolatlarni ta'minlash — ustuvor vazifa

Yurtimizda aholini ijtimoiy yordam tizimi bilan qamrab olish ko'lami yildan-yilga oshirib borilmoqda. Misol uchun, 2017-yilda kam ta'minlangan 500 ming oila ijtimoiy yordam olgan bo'lsa, bugungi kunga kelib 2,2 milliondan ortiq oilalarga ko'mak berilyapti. Ajratilayotgan mablag'lar 7 barobar ko'paytirilib, yiliga 12 trn. so'mdan ziyodni tashkil etmoqda.

Davlat tomonidan sarflanayotgan mablag'lar kam ta'minlangan va og'ir ahvolda tushib qolgan shaxslarning hayotiy ehtiyojlarini qoplashga qaratilgan. Ammo avvallari ba'zi bir o'ziga to'q fuqarolar tomonidan ijtimoiy zaif qatlamlarga mo'ljallangan nafaqadan foydalanish holatlari uchragani ham bor gap. Masalan, nafaqa olayotgan shaxslar tomonidan xonadonlar, avtotransport va boshqa mulklar xarid qilish holatlari kuzatilgan. Bundan tashqari, mablag'larga erishish uchun bir qator shaxslar mol-mulkinini



qarindoshlari nomiga o'tkazib, o'zini sun'iy ravishda kambag'allik toifasiga olib kelib, nafaqalardan foydalangan holatlar uchragani ham bor gap. Bu borada ayrim mahalla fuqarolar yig'ini mas'ullari tomonidan korrupsiyaviy holatlar ham qayd etilgan.

Jahon banki tadqiqotiga ko'ra O'zbekistonda 2022-yilda ijtimoiy himoya dasturlari doirasida nafaqa olganlarning 5,6 foizi o'ziga to'q va 12,5 foizi o'rta ahvoldagi oilalar ekanligi aniqlangan. Shundan kelib chiqib, 2022-yilda jami nafaqa oluvchi oilalarning 18,1 foizi kam ta'minlangan, deb topilgan, ammo haqiqatda ijtimoiy yordamga muhtoj bo'lmagan oilalar (shaxslar) hisoblangan.

Shu kabi holatlarning oldini olish, ushbu masalada inson omilini keskin kamaytirish va ijtimoiy nafaqalar manzilligini oshirish hamda uni tayinlashdagi adolatlilikni ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining qarori bilan aholiga barcha turdagi ijtimoiy xizmatlar va yordamlarni ko'rsatish yuzasidan "Yagona milliy ijtimoiy himoya" axborot tizimi ishga tushirildi. Buning natijasida muhtoj bo'lmaganlarga asossiz nafaqa to'lashning oldi olindi, qisqargan xarajatlari byudjetda qoldirildi.

Mazkur jarayonlarga nafaqat davlat tashkilotlari xodimlari, balki deputatlar, mahalla faollari, har bir fuqaro mas'uliyat bilan qarashi Davlat byudjetidan ajratilayotgan mablag'larning oqilona sarflanishi va ehtiyojmand shaxslarga manzilli yetib borishi ta'minlanishida muhim ahamiyatga ega.

## Reabilitatsiya, sport va ta'lim sohasida yangi imkoniyatlar

Videosektor yig'ilishida joriy yilda ijtimoiy xizmat va yordamni samarali tashkil etish borasida ko'plab tashabbuslar qilingani alohida ta'kidlab o'tildi. Bu bo'yicha aniq raqamlar va dalillar keltirildi.

Aytish mumkinki, shu yilning o'zida yuz minglab fuqarolarimizning daromadlari oshishiga, imtiyozli asosda ta'lim va kasbga ega bo'lishiga, eng muhimi, birlamchi tibbiy yordam bilan qamrab olinishiga erishilgan.

Shuningdek, Prezidentimiz tomonidan hamma rahbar ham ehtiyojmand aholi bandligini ta'minlab, daromadini ko'paytirish, ularga manzilli ijtimoiy xizmat va yordamlar ko'rsatishni to'g'ri uyushtira olmayotgani ko'rsatib o'tilgan mas'ullar xalqimizni rozi qilish borasidagi ishlarni yanada samarali tashkil etishi zarurligini anglatadi. Bu borada biz, deputatlar ham saylov okruglaridagi mas'ul rahbarlar bilan hamkorlikni kuchaytiramiz, albatta.

Mamlakatimiz rahbari joriy yil ijtimoiy himoya bo'yicha qilingan 34 ta muhim yangilikka 2025-yilda amalga oshirilishi kerak bo'lgan qo'shimcha 28 ta yangi tashabbusni ilgari surib, ularning hayotga samarali tatbiq etilishi lozimligini alohida ta'kidlab o'tildi. Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun reabilitatsiya, sport va ta'lim sohasida yangi imkoniyatlar taqdim qilinayotgani aholining ushbu qatlamini birdek quvontirishi, shubhisiz.

Biz inklyuziv jamiyat barpo etish yo'lidani dadil odimlayapmiz. Bu borada qilinayotgan ishlar to'g'risida to'xtaladigan bo'lsak, masalan, 2019-yil 1-avgustdan boshlab II guruh nogironligi bo'lgan yolg'iz shaxslar — pensionerlarning pensiyalariga ustama miqdori pensiyani hisoblash bazaviy miqdorining 50 foizidan 75 foizga oshirildi. I guruh nogironlik nafaqasi, shuningdek, 18 yoshdan katta bolalikdan I guruh nogironlik nafaqasi oluvchilarga har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 25 foizi darajasida qo'shimcha to'lov joriy qilindi.

2023-yil 1-yanvardan boshlab I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslarga pensiya tayinlangandan keyin kamida 1 yil ish stajiga ega bo'lsa, ish staji va ish haqini hisobga

olgan holda hamda kelgusida har 2 yilda nogironlik pensiya miqdorlarini qayta hisoblash amaliyoti joriy etildi.

Shuningdek, nogironligi borlarga protez va reabilitatsiya vositalari turi 18 dan 30 taga oshirilib, bu vositalarning umumiy mablag'i 1,5 barobar ko'paydi. 100 mingdan ortiq odamlarning ehtiyoji ta'minlandi.

Ushbu islohotlarning uzviy davomi sifatida aytish mumkinki, endilikda nogironligi bor insonlar uchun reabilitatsiya xizmatlarini yanada rivojlantirish maqsadida har bir viloyat va tuman shifoxonalari reabilitatsiya xizmatlari yo'lga qo'yiladi. Kelgusi yili 12 ta reabilitatsiya markazi doirasida ergoterapiya, fizioterapiya va davolash-gimnastika xizmatlari qamrovi 5 karra oshirilishi natijasida nogironligi bor fuqarolarning sog'lig'ini tiklash va ularga umumiy reabilitatsiya xizmatlari ko'rsatishda muhim o'zgarishlar bo'ladi.

Albatta, davlatimiz tomonidan nogironligi bo'lgan shaxslarning sport bilan shug'ullanishi uchun qulay sharoit yaratilayotgani sababli ular sport bo'yicha jahon maydonlarida yuqori natijalarni qo'lga kiritmoqda. Masalan, yaqinda Parij shahrida o'tkazilgan Paralimpiya o'yinlarida O'zbekiston vakillari 10 ta oltin, 9 ta kumush va 7 ta bronza medallarini qo'lga kiritib, umumjamo'a hisobida 13-o'rinni egallagan e'tiborga mo'lik.

Endilikda xalqaro andozalar asosida nogironligi bo'lgan shaxslar uchun sport turlari ham kengaytirilishi, ularning bunga layoqati kasallik turiga qarab avtomatik belgilanishi natijasida sport bilan shug'ullanishga yo'llanma olishi mumkin bo'lgan shunday shaxslar soni 286 mingdan 440 mingga oshadi.

Mamlakatimizda har bir shaxsning ta'lim olishi konstitutsiyaviy huquqi ekanligi sababli nogironligi bor bolalarga ham erkin va sifatlil ta'lim olish uchun munosib sharoitlar yaratib berilmoqda. Bu borada kelgusi yili ham 954 ta maktabda inklyuziv sinf tashkil qilinib, yana 1 800 nafar nogironligi bor bola o'qishi uchun sharoit yaratilishi, harakati cheklangan bolalarga maktabga kelib-ketish xarajatining 75 foizini qoplash tizimini joriy qilish va natijada 15 ming nafar nogironligi bor bolani ta'limga jalb etish vazifasi qo'yildi.

## Qonun ijodkorligi jarayonida bosh mezon

Hayotiy va xalqchil tashabbuslar xalqimiz turmush darajasini yaxshilash, ularning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan bilan nihoyatda ahamiyatlidir. Shu ma'noda, so'nggi ikki yil davomida qabul qilingan qonunchilik hujjatlariga muvofiqlashtirgan holda O'zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish strategiyasini qayta ko'rib chiqish va yanada takomillashtirish maqsadiga muvofiq bo'ladi.

Kezi kelganda ta'kidlash joizki, parlamentimiz faoliyati ham ijtimoiy davlat tamoyilini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan. Xususan, biz, deputatlar ham ishimizni aynan shu maqsadga yo'naltirishga tayyormiz.

Videosektor yig'ilishidan so'ng ushbu yo'nalishdagi faoliyatimizni qayta ko'rib chiqdik. Milliy qonunchilik bazasini deputatlarimiz, olimlar, ekspertlar, sohaning yetuk mutaxassislari ishtirokida to'liq xatlovdan o'tkazish ishlarini boshlab yubordik.

Qonunchilik palatasining Kengashi qarori bilan kambag'allikni qisqartirish borasidagi ishlarning holatini o'rganish bo'yicha ishchi guruh tuzilib, alohida "Yo'l xaritasi" ishlab chiqildi. Belgilab berilgan ustuvor vazifalar ijrosi tegishli davlat boshqaruv organi tomonidan sifatlil amalga oshirilishida parlament nazorati doirasidagi faoliyatimizni yanada kuchaytiramiz, albatta.

Yaqinda Qonunchilik palatasida bo'lib o'tgan majlisda davlatimiz rahbari "oldingi chaqiriq davridagi tor doirali parlament nazoratidan endi keng ko'lami, sifatlil nazorat tizimiga o'tish zarur", degan edi. Shunday ekan, barchamiz birgalikda ish olib borsak, yurtimizning ijtimoiy barqarorligi va aholining farovon hayotini ta'minlashda salmoqli natijalarga erishamiz.

Mavludaxon XO'JAYEVA,  
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi  
Spikeri o'rinbosari.

# KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH MEXANIZMLARI KUCHAYTIRILADI

Yaqinda Prezidentimiz raisligida mahallalarda kambag'allikni qisqartirish bo'yicha qilingan ishlar sarhisobi va 2025-yil uchun ustuvor vazifalarga bag'ishlangan videosektor yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda mamlakatimiz iqtisodiy rivoji va xalqimiz farovonligi uchun muhim masalalar ko'tarildi.



Yodimizda, davlatimiz rahbari faoliyatining ilk kunlaridanoq har bir rahbarga odamlarning oldiga borib dardini eshitish, muammosini joyida hal qilish vazifasini qo'ygandi. Bu talabning joriy natijasiga yillar davomida turli sohalaridagi faoliyatlar guvoh bo'lganman. Birgina bank tizimida uymay uyulib amalga oshirilayotgan ishlar natijasida odamlarning daromadi sezilarli oshdi.

Rahbarlarga qo'yilgan bu talab hali ham sayuqani yo'q. Prezidentimiz har bir rahbarga qarata "Qat'iy oghohlantiraman — mahallaga tushib,

odamlarimiz va tadbirkorlar muammosini hal qilmagan rahbar ishlamaydi. Hamma o'zgarishi kerak", deya ta'kidlab. Yig'ilishda 2025-yilda 5 milliondan ziyod aholini daromadli qilish, 1,5 million odamni kambag'allikdan chiqarish mahallabay hisob-kitob qilingani aytib o'tildi. Bu maqsadga erishish uchun hududlarning iqtisodiy sektorlar ish tizimi va yondashuvlarini tubdan qayta ko'rib chiqish zarurligi qayd etildi.

Hududlarda hokim va banklarning ijobiy tajribalarini kengaytirish, muammolarni hal qilish bo'yicha 40 dan ortiq taklif va tashabbuslar

ishlab chiqilgan ta'kidlandi. Shu asosda hokimlar, sektor rahbarlari, respublikadan tortib to mahallagacha bo'lgan mas'uliyatli mutasaddilarga tegishli vazifalar topshirildi.

Albatta, biz, senatorlar — xalq vakillari ham o'zimizga kerakli masalalarni belgilab oldik. Har bir yo'nalish, jumladan, kambag'allikni qisqartirish tizimida ham mahalliy Kengashlar bilan birga mahallaga har bir deputat mas'ul qilinib, tizimli ishlarni amalga oshirish choralari ko'rilmoqda. Bu borada "Senat — mahalliy Kengash — mahalla yetiligi" hamkorligi tizimidan foydalangan holda aholining tomorqadan daromad topishi, o'z biznesini, kichik tadbirkorlikni yo'lga qo'yishi va ish o'rinlarini yaratishiga ko'maklashilmoqda.

Abdulkhaim ESHMURATOV,  
Oliy Majlis Senatining  
Sud-huquq masalalari va  
korrupsiyaga  
qarshi kurashish qo'mitasi raisi.

# HAM NAZORAT, HAM KO'MAK

Prezidentimiz raisligida ijtimoiy himoya sohasidagi ishlar natijadorligi va 2025-yil uchun ustuvor vazifalar muhokamasiga bag'ishlab o'tkazilgan yig'ilishda uzoq yillar davomida yechim topmagan, shu bilan birga, eng og'riqli va nihoyatda dolzarb masalalar ko'tarildi.



Avvalo, shuni aytish kerakki, Prezidentimiz davlat rahbari sifatidagi ilk faoliyatidan boshlab xalqimizning og'irini yengillashtiradigan muhim qo'lga kiritib, umumjamo'a hisobida barchamizga o'rnak bo'layotir. Aytish mumkinki, ijtimoiy himoya masalasi bu ishlarning eng avvalidan o'rin oldi. Mana, biz joylarda uylarga kiramiz, aholi bilan ishlamaymiz. Afsuski, qanchadan-qancha nogironligi bo'lgan insonlar yashovchi oilalar bor, lekin ularning holidan faqat bayramlarda xabar olinib kelingan. Kezi kelganda, buning ham aksariyati no'migagina amalga oshirilganini tan olishimiz joiz.

Darhaqiqat, so'nggi yetti yilda ijtimoiy himoya tizimiga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston yangi tahrirdagi Konstitutsiyada ijtimoiy

davlat sifatida e'lon qilindi va eng muhimi, Prezidentimiz tashabbusi bilan ijtimoiy himoyaning har bir jabhasini to'liq rivojlantirish maqsadida yagona tizim ishlab chiqildi — Ijtimoiy himoya milliy agentligi ish boshladi.

Bilamizki, ijtimoiy himoya tizimi katta mablag' talab etadi. Va ayni damda bu mablag'lar qayta aylanib, o'zini qoplamaydi ham. Butun dunyodagi iqtisodiy inqirozlar davrida davlat rahbarining o'z xalqini o'ylab amalga oshirayotgan bunday ishlari esa juda katta mas'uliyat va siyosiy irodani talab etadi. Shu bois ishlab chiqilayotgan har bir qonunda ijtimoiy himoya mezonlariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'tkazilgan videosektor yig'ilishida quyi bo'g'indan tortib, katta-kichik rahbarlar, parlament a'zolari va senatorlarga ham shunday

vazifalar qo'yildiki, demak, har bir sa'y-harakatimizda, ishimizda aholining ijtimoiy himoyasi masalasi alohida e'tiborimizda turishi shart.

Hozirgi kunda 65 turdagi ijtimoiy xizmat va yordam olish uchun fuqarolarimiz tug'ilganlik, nogironlik, pensiya, talabali guvohnomasi, bank kartasi kabi 10 dan ortiq hujjatlarni ko'tarib yurishga majbur. Prezidentimiz bunday ovoragarchilikka chek qo'yish vaqti kelganini ta'kidlab, barcha hujjatning o'rni bosadigan bitta — ijtimoiy karta joriy etilishini e'lon qildi.

Ijtimoiy karta orqali avtobus va metroda bepul yurish, elektr, gaz va o'qish xarajatlarga kompensatsiya olish mumkin bo'ladi, nafaqa va yordam pullari ham shu kartaga tushadi. Bu tizim kelgusi yilning 1-iyulgacha Toshkent shahri

Asosiysi, tizimning joylarda mukammal ishlashi uchun doimiy parlament nazoratini olib borish va nafaqat nazorat, balki ijro organlariga ko'mak ko'rsatish orqali xalqimizning og'iriga yelka tutishimiz kerakligini angladik.

Odiljon MAMATKARIMOV,  
Oliy Majlis Senatining  
Xalqaro munosabatlar,  
tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo'mitasi raisi o'rinbosari.

# IPOTEKA ELEKTRON GAROV XATI

uy-joy ta'minotidagi ko'plab ovoragarchiliklarga barham beradi

Ipoteka krediti — jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida biz uchun dolzarbligicha qolmoqda. Chunki aholining uy-joy sotib olishga talabi o'sib borayotgan bir paytda tijorat banklari uni moliyaviy resurslar bilan o'z vaqtida ta'minlashi lozim.



Bugungi kunda tijorat banklari tomonidan ipoteka kreditlari, asosan, hukumat tomonidan joylashtirilgan resurslar va o'z mablag'lari hisobidan ajratilyapti. Shuning uchun ham davlatimiz rahbari tashabbusi bilan "O'zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi" AJ tashkil etildi, unga ipoteka bozorini moliyaviy resurslar bilan ta'minlash, umuman, ipotekaning zamonaviy bozorini yaratish vazifasi yuklatildi. Bu borada salmoqli ishlar qilindi ham. Xususan, bugungi kunga qadar 18,8 ming nafar fuqaroning 3,7 trllion so'mlik ipoteka kreditlari qayta moliyalashtirildi.

Biroq bu masalada yuzaga kelgan va kelayotgan juda ko'plab holatlar qonunchilikdagi normalarda aks etmagan. Shu sababli, byurokrats to'liqlar ipoteka kreditidan foydalanishda qog'ozbozlik va boshqa nizolarni keltirib chiqaryapti. "Ipoteka to'g'risida"gi Qonunga kiritilgan o'zgartirish

va qo'shimchalar aynan ana shu kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan.

Ipoteka elektron garov xati ipoteka krediti olgan shaxs va bergan bank, shuningdek, ipoteka kreditini garovga olganlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Garov xati ro'yxatdan o'tkazilganda uning muomala yo'llari raqamlashtiriladi. Garov xatini boshqa shaxsga berganda ipoteka krediti bo'yicha talab huquqi avtomatik ravishda ushbu shaxsga o'tadi. Bunda kredit va ipoteka shartnomalariga notariyal tartibda o'zgartirish kiritish hamda ularni davlat ro'yxatidan o'tkazish talab etilmaydi.

Shuni aytish kerakki, elektron garov xati orqali uy-joyini boshqa shaxsga rasmiylashtirishda hozirda mavjud bo'lgan ko'plab muammolarga yo'l qo'yilmaydi. Chunki unda aynan kelgusida majburiyatni bo'yniga oladigan, o'zaro munosabatlarda to'lovlarning qonuniy amalga oshirilishini ta'minlaydigan badal bo'lib, ular notariyal

tartibda tasdiqlanib boradi va ortiqcha qog'ozbozlik talab etilmaydi.

Garov xatini boshqa shaxsga o'tkazish fuqaro uchun ipoteka krediti shartlarini o'zgartirmaydi hamda yagona boshqa qo'shimcha majburiyatlar yuklamaydi. Faqat kredit bo'yicha to'lovlarni qabul qiluvchi shaxs o'zgarishi mumkin. Darvoqe, keyinchalik bank garov xatlarini ta'minot sifatida ishlatis, boshqa moliyaviy institutlardan ham qarz mablag'larini jalb etish mumkin bo'ladi.

Bundan tashqari, garov xatini onlayn tartibda yoki davlat xizmatlari markazlariga borib rasmiylashtirishda xarajat hamda vaqt tejiladi. Vaholanki, ayni paytda bunday hujjatlarni rasmiylashtirish uchun tomonlarning shaxsan qatnashishi, kadastr organlariga to'g'ridan-to'g'ri murojaat qilishi talab etiladi.

Demak, ipoteka elektron xati bunday jarayonlarni soddalashtirishga, aholiga qulay sharoit yaratishga qaratilgan. Ayni chog'da mulk bo'yicha mavjud yuklamalar haqida xolis va aniq ma'lumotlarga ega bo'lish imkonini yaratib, samarali qayta moliyalashga to'sqinlik qiluvchi holatlarga barham beradi. Bu holat kredit berayotgan bankning ham, kredit olayotgan fuqaroning ham huquqlarini kafolatlaydi.

Shavkat SHARIPOV,  
Oliy Majlis Senati a'zosi.

Misrdan O'zbekistonga «C» gepatitiga qarshi dori vositalarini yetkazish qayta yo'lga qo'yildi.

# ODAMLAR QALBIGA QUVONCH ULASHISH ULKAN SAVOB

Prezidentimiz yig'ilishda ta'kidlaganidek, yurtimiz hududlarida "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari ochilib, mahallalarda 102 ta ijtimoiy xizmat yo'liga qo'yildi. Ularning xodimlari uyma-uy yurib, shu choqqacha reestrga kirmagan yana 95 ming nafar muhtoj odamga yordam ko'rsatdi. Xususan, yotib qolgan 4 ming nafar yolg'iz keksa aniqlanib, o'z uyularida parvarishga olindi. Nogironligi bor 5 ming nafar bola maxsus bog'cha-maktablarga joylashtirildi.



ayniqsa, nogironligi bo'lgan shaxslarga doimiy g'amxo'rlik ko'rsatishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu esa yurtimizda inson qadri ulug' ekanini anglatadi.

Mana shunday ajru savobi ulkan ishlar qalbmizga quvonch ulashibgina qolmay, har birimizni fikr-mulohaza yuritishga, mushohadaga undashi tabiiy.

Aloh taolo biz, bandalariga qo'li ochiq, xayr-saxovatli bo'lishni buyurib, muhsinlarni sevishni bayon etgan: "Allohnig yo'lida nafaqa qiling. O'zingizni halokatga duchor qilmang. Ehsan qiling. Albatta, Alloh ehsan qiluvchilarni xush ko'radi" (Baqara surasi, 195-oyat). Haqiqatan, bunday xislatga ega bo'lish ulug' fazilat. Zero, bandaning rizqiga baraka kirishi, ziyoda bo'lishida uning ehsani, xayru saxobati muhim o'rin tutadi.

Bugun mamlakatimizda aholi ijtimoiy himoyasini kuchaytirish,

Shu o'rinda mazkur yo'nalishlarda Ijtimoiy himoya milliy agentligi bilan O'zbekiston musulmonlari idorasi va "Vaqf" xayriya jamoati fondi doimiy hamkorlik qilayotganini ham alohida ta'kidlash joiz.

Islom dini manbalarida nogironligi bor odam sabr ila hayot sinovlarini matonat bilan yengib o'tsa, ulug' mukofotlarga noil bo'lishi rivoyat qilingan. Anas roziyallohu anhudan aytilgan rivoyatda Rasululloh sollallohu alayhi vasallam bunday marhamat etganlar: "Alloh azza va jalla: "Agar biror bandamning ikki ko'zini shikastlasam, u banda bunga sabr qilsa, Men evaziga jannat bilan taqdirlayman", dedi" (Imom Buxoriy rivoyati).

Ta'kidlash kerakki, muruvvat ko'rsatish bilan mol-dunyo kamayib qolmaydi, balki unga baraka kiradi. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam: "Uch narsaga qasam ichaman: bandaning moli sadaqa qilish bilan kamaymaydi. Bandaga biror zulm qilinganida sabrli bo'lsa, Alloh uning izzat-sharafini oshiradi. Banda tilanchilik ehsigini ochsa, Alloh unga faqirlik ehsigini ochadi", dedilar (Imom Termiziy rivoyati).

Bu bilan Nabiy alayhissalom ham biz, ummatlarini saxovatli bo'lishga undamoqdalar. Hech kim molim

kamayib qoladi, degan xayol bilan xayr-ehson qilishdan tiyilmasligi lozim. Mol-dunyo ko'payishiga sabablardan biri o'z vaqtida uning zakotini berish barobarida faqir va muhtojlarni qo'llab-quvvatlashdir.

Boynig molida miskinning haqqi bo'ladi. Payg'ambar alayhissalom aytadilar: "Har kuni tongda insonlar uyqudan uyg'onlarida yer yuziga ikki farishta tushadi. Ulardan biri: "Allohim, infoqehson qilgan insonning moli o'rnini to'ldir", desa, ikkinchisi: "Allohim, ziqna odamning moliga talafot yetkaz", deb duo qiladi". (Muttafaqun alayh)

Qur'oni karimda: "Yenglar, ickinglar, ammo isrof qilmanglar" (A'rof surasi, 31-oyat), deb ogohlantiriladi. Dunyo hayotida ba'zi insonlar qilayotgan ishlarni ko'rib, taajjubga qolasan kishi. Alloh taolo ularga ko'p mol-mulk bergan bo'lsa-da, uni turli isrofgarchilikka, dabdababozlikka, hashamatga

Yig'ilishda belgilangan ustuvor vazifalar aholining ijtimoiy muhofazasini kuchaytirish, himoya mexanizmlarini takomillashtirishga zamin yaratadi. Endi davlat tomonidan fuqarolarga ijtimoiy xizmat ko'rsatish ko'lami bundan-da kengayadi. Jamiyatda aholiga ko'makning yangi darajaga ko'tarilishi oilalar farovonligining yanada oshishiga xizmat qiladi, insha Alloh!

Shayx Nuriddin XOLIQAQAZAR, O'zbekiston musulmonlari idorasi raisi, muftiy.

## Iftixor

### HUMO QALBINGGA YOR BO'LSIN!

Dunyo ahlini lol qoldirgan matonatli o'zbek ayoli, "Mardlik" ordeni sohibi Dilorom YO'LDOSHEVAga

Dilorom, dilda oromu quvonching beg'ubor bo'lsin, Seningdek mardiy maydonlar bu olam ichra bor bo'lsin.

Hamal yo'lingda poyandoz to'shab borliqqa aytar roz, Topibsan el aro e'zoz, Humo qalbingga yor bo'lsin.

Silab qira kokiling xandon, quyoshdek tovlanar Surxon, Buyuk "Mardlik" degan unvon, adolatlari qanor bo'lsin.

Turar kaftingda qira joning, berib qira qizga imkoning, Uchib dunyoga dostoning, o'zingdek baxtiyor bo'lsin.

Bo'lib inchlikning yo'ldoshi, kezar yurt ichra Yurtboshi, Sevinchdan ko'zlarining yoshi sochilganda bahor bo'lsin.

Hanzu kechmas xiyonatdan, chiqib dingu diyonatdan, Sabaq olish matonatdan, vafosizlarga or bo'lsin.

Vatan ishqingda parvona, ayo, ey qalbi pok ona, Qadam qo'yganda mardona, dilingda lolazor bo'lsin.

Mening boshimda posbonim, muqaddas O'zbekistonim, Yarashgan davru davronim, yurakda iftixor bo'lsin.

Yasangay qalbmiz bog'i, g'azallar ishqning yaprag'i, Hayotning mehru ardog'i, to'yngda dastiyor bo'lsin.

Aziz tupraqda jonim bor, yonib sevgan makonim bor, Tuganmas imithonim bor, yo'lingda intizor bo'lsin.

Bu kun Axtamquli, dunyo turar qil ustida go'yo, Jahon ahli chekib imzo, zamonam barqaror bo'lsin.

Axtamqul KARIMOV, shoir.

## SPORT XABARLARI

### JAHON CHEMPIONATIDAN MEDALLAR SHODASI

O'zbekiston Milliy olimpiya qo'mitasidan xabar berishlaricha, Bahrayn poytaxti Manama shahrida og'ir atletika bo'yicha kattalar o'rtasidagi jahon chempionati yakunlandi.

Dunyoing 92 mamlakatidan 500 ga yaqin atletlar ishtirokida kechgan mazkur musobaqada O'zbekiston terma jamoasi 3 ta oltin, 1 ta kumush va 2 ta bronza medallariga sazovor bo'ldi. Yakunda vakillarimiz medallar jam'arish bo'yicha umumjamoa hisobida to'rtinchi o'rnini qo'lga kiritdi.



E'tiborlisi, 109 kilogrammgacha sportchilar chiqishida yurtimizning taniqu va mahorati og'ir atletikachisi Ruslan Nurudinov shtangani dast ko'tarishda 182 kg., siltab ko'tarishda 242 kg. natijani qayd etib, uch yil avval Toshkentda o'zi o'tmatgan jahon rekordini yangiladi va oltin medalni qo'lga kiritdi. E'tiborlisi, uning umumiy hisobida qayd etgan 424 kg. natijasini hech bir atlet o'zgartira olmagi va u uchinchi bor ikki kurash

### QILICHBOZLIK: QIZLARIMIZ SHOHSUPADA

Vengriyaning Budapesht shahrida qizlar o'rtasida qilichbozlikning sabiyi yo'nalishi bo'yicha yoshlar o'rtasida jahon kubogi musobaqalari bo'lib o'tdi.



Quvonarlisi, qizlarimiz jamoaviy dasturda ham kumush medalni qo'lga kiritdi. Ular dastlab jiddiy raqiblardan biri — Koreya Respublikasi vakillari ustidan g'alaba qozonishdi. Shundan so'ng chorak finalda Polsha, yarimfinalda Buyuk Britaniya jamoasi mag'lub etildi. Final bahsida esa mezbon — vengriyalik sportchilar (45:42) ustun keldi. Shu tariqa sabiyachi qizlarimiz shohsupaning ikkinchi pog'onasidan joy oldi. Bellashuvlarda Gulistan Perdibayeva, Fernanda Errera, Samira Shokirova hamda Ayako'z Jumamuratova yurtimiz sharafini himoya qildi.

Sunnatilla ISLOMOV ("Xalq so'zi")

# O'ZBEKISTON CHARM SANOATINING EKOLOGIK INNOVATSIYALARI: TARAQQIYOTNING MUHIM BOSQICHI

Barcha sanoat tarmoqlarida bo'lgani kabi O'zbekiston charm sanoati oxirgi yillarda muhim ekologik o'zgarishlar va innovatsiyalar bilan bog'liq yangiliklari bois diqqatni tortayotgan sohalaridan biriga aylandi. Bunga asosiy sabablardan biri — yangi ekologik talablarga javob beradigan va global bozorlarda raqobatbardoshlikni ta'minlashga qaratilgan ishlarining faollashganidir. Shulardan biri — O'zbekistonning "LWG" (Leather Working Group) sertifikatini olish jarayoni bo'lib, bu mamlakat charm sanoatining ekologik barqarorlikka intilishidagi ustuvorligini anglatadi.

Zero, O'zbekiston rahbarining 2024-yil 23-maydagi "Charm-poyabzal, ipakchilik va gillamchilik tarmoqlarini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan "O'zcharmsanoat" uyushmasi tashabbusi bilan mamlakatimizdagi charm sanoati korxonalariga bugun ushbu global sertifikatni ishlab chiqarishga joriy qilish bo'yicha muhim qadamlarni tashladi. Xo'sh, tarmoqda qanday o'zgarishlar bo'lmoqda? Bu borada "O'zcharmsanoat" uyushmasi raisi hamda xalqaro ekspertlar o'z fikrlarini bayon qildi.



PEKJAMA

### Akbar SULTONOV, "O'zcharmsanoat" uyushmasi raisi:

— "LWG" sertifikatini — bu charm sanoatining ekologik talablarini qondirgan va ishlab chiqarish jarayonlarida barqarorlikni ta'minlashga intilayotgan korxonalariga beriladigan xalqaro standart. Ushbu sertifikat, avvalambor, charm ishlab chiqarishda yuzaga kelgan chiqindilar, ximikatlari va sarflangan resurslarning ekologik ta'sirini minimallashtirishga qaratilgan tadbirlarini o'Ichaydi. "LWG" sertifikatini olish charm ishlab chiqaruvchilarga ekologik masalalardagi mas'uliyatni bildirib, ularning yuqori sifatlari va barqaror mahsulotlari ishlab chiqarishga intilishini ko'rsatadi.

O'zbekistonning charm sanoatida ekologik innovatsiyalarni joriy etish bo'yicha bir necha

muhim qadamlar amalga oshirildi. Xususan, chiqindilarni qayta ishlashga, zararli kimyoviy moddalardan foydalanishni kamaytirish va suv resurslaridan oqilona foydalanish bo'yicha aniq ishlar uddalandi.

Misol uchun, ko'pchilik ishlab chiqaruvchilar o'zining chiqindilarini qayta ishlash tizimini takomillashtirmoqda, bu esa chirklangan suvni kamaytirish va energiya sarfini pasaytirishga yordam beradi. "LWG" sertifikatini olish nafaqat ekologik barqarorlik, balki O'zbekistonning charm sanoati uchun iqtisodiy va marketing jihatdan ham muhim ahamiyatga ega. Bu, avval, ekologik standartlarga rioya qilish orqali xalqaro bozorlarda o'z o'rnini mustahkamlashga yordam beradi.

O'zbekistonning "LWG" sertifikatini olishi,

mamlakat charm sanoatining global bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirishga katta ta'sir ko'rsatadi. Chunki bu sertifikat xalqaro bozorlarda yuqori ekologik standartlarga rioya qilishni, qayta ishlash texnologiyalarini va ekologik barqarorlikni e'tiborga olishni belgilaydi. Shu bilan birga, sertifikatga ega bo'lgan korxonalarining mahsulotlari iste'molchilarning yanada e'tiboriga sazovor bo'ladi va ularning talabiga javob beradi.

O'zbekiston charm sanoati korxonalarida xalqaro sertifikatni joriy qilish maqsadida dunyo ekspertlari taklif etilib, bu ishlarni yanada jadallashtirish bo'yicha konsalting xizmatlari ko'rsatildi. Xalqaro ekspertlar bu borada O'zbekistonning sa'y-harakatlarini mamlakat kelajagi uchun muhim jarayon, deya baholamoqda.

### Mohammad Azhar SHAKIR, "Midastar Specialities" kompaniyasi rahbari:

— O'zbekistonning charm sanoati so'nggi yillarda katta o'zgarishlar va rivojlanishlarga qadam qo'ydi. Sohadagi muhim qadamlardan biri — mahalliy charm sanoati korxonalarining xalqaro ekologik standartlarga javob bergani va "Leather Working Group" (LWG) sertifikatini olishga qaratilgan tashabbuslardir. "LWG" sertifikatini — bu yoshlar va ishlab chiqaruvchilar uchun yangi imkoniyatlar ishorasi bo'lib, ekologik standartlar, tozalik va atrof-muhitni muhofaza qilishda yuqori talablarga javob beradigan korxonalariga beriluvchi muhim darajadir. Bu sertifikatni olish orqali charm sanoatining mahalliy ishlab chiqaruvchilari nafaqat xalqaro bozorda o'z o'rnini mustahkamlash, balki mahsulotlarining ekologik javobgarligini ko'rsatish imkoniga ega bo'ladi.

Sertifikatni olish faqatgina eksport uchun emas, balki atrof-muhitni muhofaza qilishga bo'lgan mas'uliyatni anglatadi. Bu ekologik e'tiborni kuchaytirish, kimyoviy moddalarni kamaytirish va ishlab chiqarish jarayonlarini samarali boshqarishga yo'naltirilgan muhim qadamdir. Ushbu sertifikat O'zbekiston charm sanoatini xalqaro standartlarga muvofiq rivojlantirishga, shuningdek, mamlakatning xalqaro maydondagi ekologik pozitsiyasini kuchaytirishga yordam beradi. Xalqaro bozorlarda raqobatbardosh bo'lish uchun ekologik standartlarga moslashish zarur. "LWG" sertifikatini olish O'zbekistonning charm sanoati jahon miqosida tan olinishiga erishamiz.



Aynan shu maqsadda O'zbekiston charm sanoati sohasida "LWG" sertifikatini olish jarayonida zamonaviy ekologik texnologiyalar va innovatsiyalar "eco-friendly" tarzida tashkil qilinadi. Ya'ni u chiqindilarni qayta ishlash va energiyani tejash kabi sohalarida qo'llaniladi. "Yashil" texnologiyalar va barqaror ishlab chiqarish ustida ishlash mamlakatning iqtisodiy rivoji uchun murakkab, lekin muhim bosqich bo'ladi. Har bir tadbirkor ekologik barqarorlikni ta'minlashga harakat qilishi, shuningdek, butun sanoatni yangi standartlarga moslashtirishi kerak. Ayni yo'nalishda "O'zcharmsanoat" uyushmasi va soha korxonalarini bu jarayonlarning yangi bosqichiga qadam qo'yan.

### Mitesh VERMA, xalqaro ekspert:

— O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan charm sanoati korxonalarini tomonidan "LWG" sertifikatini olishga bo'lgan intilish, eng avvalo, O'zbekistonning eksport salohiyatini oshirish va mamlakatning imijini yaxshilashga xizmat qiladi. Boisi, "LWG" sertifikatini bu xalqaro bozorda tan olinganlik darajasidir.

2024-yilning dekabr oyiga qadar xalqaro tashkilotning auditorlik va konsalting xizmatlari tomonidan 50 dan ortiq korxonalarida auditoldi tekshiruvlari o'tkazildi. Natijada 2025-yilning martida 10 ta korxonada "LWG" sertifikatini oladigan bo'ladi. 2026-yilda ham qolgan korxonalariga bu sertifikatlarni berish jarayonlari davom ettiriladi.

Qolaversa, bu jarayonga mahalliy ishlab chiqaruvchilar va ekologik tajribalarni qo'llab-quvvatlovchi davlat hamda xususiy sektor ham qiziqish ko'rsatayotganini ko'rish mumkin. Respublikadagi qator tashkilotlar, jumladan, poyabzal va charm ishlab chiqaruvchi korxonalar bu sertifikatni olishga intilmoqda.

O'zbekiston charm sanoatining "LWG" sertifikatini olishi — ekologiyaga bo'lgan e'tiborning o'sishi, barqarorlikka yo'naltirilgan g'oyalarni amalga oshirishning yangi bosqichi va global bozordagi pozitsiyalarini mustahkamlashning muhim qadami hisoblanadi. Bu sanoatning ekologik innovatsiyalar va texnologik o'zgarishlar yo'lidagi muvaffaqiyati, O'zbekistonning raqobatbardoshligini yanada oshiradi.

"O'zcharmsanoat" uyushmasi tomonidan xalqaro sertifikatni mahalliy korxonalariga yanada keng joriy qilish maqsadida bu borada uzoq yillik tajribaga ega xalqaro bozorda tan olingan auditorlik "MSS" (Midastar Specialities) kompaniyasi bilan kelishuv imzolandi. Kelishuvga asosan, "MSS" O'zbekiston korxonalariga nafaqat "LWG" sertifikatini olish, balki ishlab chiqarish jarayonlarini sifatlari va ekologik ko'rsatayotganini ko'rish jihatdan barqaror tashkil qilishga ham yordam beradi. Buning natijasida O'zbekiston charm sanoati global bozorda muvaffaqiyatli raqobatlashish imkoniga ega bo'ladi.

### 2025-yilda "LWG" sertifikatini oluvchi nomzod korxonalar:

1. "Peng Sheng Charm" MCHJ QK — Sirdaryo viloyati;
2. "Hamkor Nur Savdo" MCHJ — Toshkent viloyati;
3. "Premium Leather" MCHJ — Farg'ona viloyati;
4. "Angren Charm Invest" MCHJ — Toshkent viloyati;
5. "Top Quality Brand" MCHJ — Surxondaryo viloyati;
6. "UzTurk Charm" MCHJ — Jizzax viloyati;
7. "Gold Leather Export Import" MCHJ — Namangan viloyati;
8. "Nafis jozibas" — Namangan viloyati;
9. "Ulkan Laziz" MCHJ — Toshkent shahri;
10. "Antik Asl Charm" MCHJ — Namangan viloyati.

«O'zcharmsanoat» uyushmasi.

## Qirg'iz Respublikasida «Qirg'iz — o'zbek do'stligi» musiqiy kechasi bo'lib o'tdi.

### Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G-2142. 10 908 nusxada bosildi. Hajmi — 2 ta boq. Ofset usulida bosilgan. Qoq'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yubkub olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR: Devonxona 71-259-74-51; Ko'itibiyat 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.



Tahriyrga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahriyrga kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefon: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 55-uy. Navbatchi muharrir N. Ostonov. Musahhih Sh. Mashrabboyev.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonada manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 22.40 Topshirildi — 01.15 1 2 3 4 5 6

## Xalq so'zi Narodnoe slovo

MUASSISLAR: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi